



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

INDUSTRY AS THE MAIN SUPPORTING SECTOR IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Rakhimova Mushtariybegim Muhammadg‘olib qizi

Independent researcher Tashkent State University of Economics

Abstract: This scientific article will study strategies and mechanisms aimed at improving the management of the economic potential of industrial enterprises, consider current problems, proposed solutions and prospects for optimizing the economic potential of enterprises.

Keywords: economic potential, industrial enterprises, competitiveness, efficiency, management mechanisms, industrial economy.

SANOAT TARMOG‘I O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA ASOSIY TAYANCH SEKTOR SIFATIDA ПРОМЫШЛЕННОСТЬ КАК ОСНОВНОЙ ОПОРНЫЙ СЕКТОР В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Raximova Mushtariybegim Muhammadg‘olib qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Abstrakt. Ushbu ilmiy maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan strategiya va mexanizmlarni o‘rganib, korxonalarining iqtisodiy salohiyatini optimallashtirishning dolzarb muammolari, taklif etilayotgan yechimlari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Абстракт: В данной научной статье будут изучены стратегии и механизмы, направленные на совершенствование управления экономическим потенциалом промышленных предприятий, рассмотрены актуальные проблемы, предлагаемые решения и перспективы оптимизации экономического потенциала предприятий.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy salohiyat, sanoat korxonalari, raqobatbardoshlik,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

samaradorlik, boshqaruv mexanizmlari, sanoat iqtisodiyoti

Ключевые слова: экономический потенциал, промышленные предприятия, конкурентоспособность, эффективность, механизмы управления, промышленная экономика.

Kirish. Jahonda bo‘lgani kabi mamlakatimizda innovatsion rivojlantirish ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekistonning jahondagi iqtisodiy mavqegini yuksaltirish va raqobatbardosh ilm-fanni talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni ayniqsa, sanoat iqtisodiyotida sifatli rivojlantirish bevosita uning innovatsion faoliyatiga bog‘liqdir. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat va xususiy innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun shart- sharoit yaratish muayyan tarmoqlarda, ayniqsa sanoatda texnologik yutuqni ta’minlaydigan innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati uning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi omil hisoblanadi. Sanoat tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy tayanch sektor sifatida shakllanmoqda va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so‘nggi yillarda izchil kengayib bormoqda. Statistika ko‘rsatkichlar tashqi tomondan barqaror o‘shish manzarasini beradi. Biroq ishlab chiqarish hajmining ortishi sanoatning ichki iqtisodiy samaradorligi ham bir xil sur‘atda mustahkamlanayotganini anglatmaydi. Hisob-kitoblar asosida aniqlangan geometrik integral indeksning 0,438 darajada shakllanishi aynan shu tafovutni ko‘rsatmoqda. Ayrim yo‘nalishlarda ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda, investitsiya oqimi oshmoqda, lekin ichki iqtisodiy qaytim sust shakllanmoqda. Shu sababli sanoatdagi asosiy masala oddiy o‘shish sur‘atini saqlab qolishda emas, tarkibiy cheklolarni bartaraf etishda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa resurslar taqsimoti, kapital qaytimi va texnologik



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

moslashuv bilan bog‘liq ichki nomutanosibliklar tarmoq samaradorligini cheklayotgan asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Tahlillar sanoatdagi iqtisodiy to‘siqlarni bir necha tarkibiy guruhlariga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi. Eng sezilarli bosim investitsiya va texnologik yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda katta hajmdagi sarmoyalar sanoatga jalb qilinayotgan bo‘lsa-da, ularning muhim qismi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish segmentlariga yetarlicha yo‘naltirilmayapti. Kapital asosan infratuzilma, qurilish va xomashyo bazasini kengaytirishga sarflanmoqda. Natijada investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichi ($IE^* = 0,17$) past darajada shakllanmoqda. Bu yerda muammo mablag‘ yetishmovchiligida emas. Asosiy cheklov kapitalning iqtisodiy qaytim beradigan yo‘nalishlar bilan sust integratsiyalashayotganida ko‘rinmoqda. Shu sababli investitsiya hajmining kengayishi avtomatik ravishda sanoat samaradorligining oshishiga olib kelmayapti. Ayrim loyihalarda ishlab chiqarish bazasi kengaymoqda, biroq value-added tarkibida sezilarli siljish kuzatilmayapti.

Asosiy fondlar bilan bog‘liq holat ham tarmoqdagi ichki nomutanosibliklarni yanada aniqroq ochib bermoqda. Fond samaradorligi ko‘rsatkichi ($FE^* = 0,486$) quvvatlardan foydalanish darajasi va ishlab chiqarishning texnologik yuklanishi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayrim yirik korxonalarda uskunalarning 40–50 foizi uzoq yillardan beri ekspluatatsiya qilinmoqda. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini oshirmoqda, balki energiya sig‘imini ham yuqori darajada saqlab qolmoqda. Muammo yangi uskunalarning mavjud emasligida emas, eski va yangi texnologik bazaning bir tizimda nomutanosib ishlashida namoyon bo‘lmoqda. Natijada ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik uzilishlar yuzaga kelmoqda, quvvatlar to‘liq yuklanmayapti va fond qaytimi pasaymoqda. Shu nuqtada sanoatdagi asosiy cheklovlardan biri ishlab chiqarishning texnik emas, iqtisodiy moslashuvchanlik darajasi bilan bog‘liq ekani seziladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**


Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari tashqi statistik jihatdan yuqori natijani ko‘rsatmoqda. $LP^* = 1,00$ darajasidagi ko‘rsatkich bir qarashda ijobiy manzara hosil qiladi. Lekin ichki tarkib tahlil qilinganda bu o‘shning katta qismi avtomatlashtirish va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi hisobiga shakllanayotgani ko‘rinadi. Inson kapitalining sifat jihatdan transformatsiyasi esa ancha sust kechmoqda. Korxonalarda raqamli boshqaruv elementlari va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilinayotgan bo‘lsa-da, ularni boshqarishga mos malakali texnik va muhandis kadrlar yetarli emas. Shu sababli texnologik modernizatsiya ko‘pincha ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qilmoqda, biroq ichki iqtisodiy samaradorlikka bir xil tezlikda aylanmayapti. Ayniqsa ayrim korxonalarda mehnat unumdorligining o‘shisi sifat emas, hajm omili bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu esa uzoq muddatli barqarorlik uchun xavfli tendensiya hisoblanadi.

Energiya va resurs xarajatlari bilan bog‘liq muammolar sanoatning raqobatbardoshligini cheklayotgan eng og‘ir bosimlardan biriga aylanmoqda. Ayrim tarmoqlarda energiya xarajatlari mahsulot tannarxining 25–30 foizigacha yetmoqda. Bu rivojlangan sanoat tizimlari bilan solishtirganda ancha yuqori ko‘rsatkich. Muammo energiya resurslari taqchilligida emas, ulardan foydalanish samaradorligining pastligida namoyon bo‘lmoqda. Energiya tejankor texnologiyalar va ESG standartlariga mos ishlab chiqarish tizimlari hali barcha tarmoqlarda bir xil darajada shakllanmagan. Natijada ichki xarajatlar bosimi ortmoqda va eksportdagi narx ustunligi qisqarmoqda. Ayniqsa energiya intensivligi yuqori bo‘lgan tarmoqlarda bu bosim yanada kuchliroq sezilmoqda. Innovatsion va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq vaziyat ham sanoatning ichki transformatsiyasi yakunlanmaganini ko‘rsatadi. IoT, Big Data, sun‘iy intellekt elementlari yoki raqamli monitoring tizimlari asosan ayrim yirik korxonalarda joriy qilinmoqda. Kichik va o‘rta sanoat sub’yektlarida esa innovatsion integratsiya juda sekin kechmoqda. Shu sababli texnologik modernizatsiya ko‘pincha lokal xarakterda



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

qolib ketmoqda va tarmoq bo‘yicha umumiy samaradorlikka kuchli ta’sir ko‘rsatmayapti. Bu holat global bozordagi texnologik raqobatda sanoatning pozitsiyasini zaiflashtirishi mumkin. Chunki zamonaviy raqobat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, texnologik chuqurlik va value-added darajasi bilan belgilanmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan modernizatsiya dasturlari va sanoatni qo‘llab-quvvatlash choralari ishlab chiqarish bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Lekin amaliyotda bu jarayon ko‘pincha texnik yangilanish bilan cheklanib qolmoqda. Uskunalar almashmoqda, lekin ishlab chiqarishning ichki iqtisodiy modeli yetarli darajada transformatsiyalanmayapti. Shu sababli ayrim korxonalarda yangi texnologiyalar mavjud bo‘lsa-da, ulardan olinayotgan iqtisodiy qaytim sust shakllanmoqda. Hisoblangan GEI $\approx 0,438$ ko‘rsatkichi aynan shu holatni ifodalaydi: sanoatda o‘shish mavjud, biroq uning ichki iqtisodiy barqarorligi hali yetarli darajada shakllanmagan.





**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

2.4-rasm. Sanoat tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatayotgan to‘siqlar

Investisiya samaradorligi ko‘rsatkichi ($IE^* = 0,17$) sanoat tarmog‘ida kapital qo‘yilmalar hajmi ortib borayotganiga qaramasdan, ularning iqtisodiy qaytimi yetarli shakllanmayotganini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda sanoatga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi sezilarli kengaydi, biroq sarmoyalarning katta qismi ishlab chiqarishning texnologik chuqurlashuviga emas, infratuzilmaviy obyektlar va quvvatlarni kengaytirishga yo‘naltirilmoqda. Natijada ishlab chiqarish hajmi o‘smoqda, lekin qo‘shilgan qiymat tarkibida sezilarli sifat o‘zgarishi kuzatilmayapti. Ayrim korxonalarda yangi ishlab chiqarish liniyalari ishga tushirilgan bo‘lsa-da, quvvat yuklanishi 55–60 foizdan oshmayapti. Bu esa kapitalning bir qismi iqtisodiy aylanishga to‘liq kirishmayotganini bildiradi. Muammo mablag‘ yetishmovchiligida emas. Asosiy uzilish investitsiya oqimining yuqori texnologik qaytim bilan bog‘lanmaganida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli GEI ko‘rsatkichi kamida 0,05–0,07 punktga past shakllanmoqda.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ($FE^* = 0,486$) ham sanoatdagi ichki nomutanosibliklarni ochib bermoqda. Mashinasozlik va kimyo tarmoqlarida ishlayotgan uskunalarning sezilarli qismi 15–20 yildan ortiq ekspluatatsiya qilinmoqda. Ayrim korxonalarda texnologik liniya yangilanadi, lekin unga bog‘langan yordamchi tizimlar eski holatda qoladi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar paydo bo‘ladi, profilaktik ta’mirlash esa reaktiv xarakterda olib boriladi. Korxonalarning katta qismida profilaktik xizmat ko‘rsatish darajasi 35–40 foiz atrofida qolmoqda. Rivojlangan sanoat tizimlarida bu ko‘rsatkich 60 foizdan yuqori. Tafovut shunchaki texnik masala emas — u tannarx, ishlab chiqarish ritmi va mahsulot sifatiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu sababli ayrim korxonalarda yangi fondlar mavjud bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy yuklanishi sustligicha qolmoqda.

Hisob-kitoblarda mehnat unumdorligi ($LP^* = 1,00$) maksimal darajaga yaqin natijani ko‘rsatmoqda. Lekin bu ko‘rsatkichning ichki tarkibi barqaror emas. Unumdorlikning o‘sishi ko‘proq avtomatlashtirish va ishlab chiqarish hajmining kengayishi hisobiga shakllanmoqda. Inson kapitalining sifat jihatdan transformatsiyasi esa sekin kechmoqda. Tekstil va oziq-ovqat sanoatida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

ko‘rsatadiki, korxonalarining kamida uchdan birida yangi texnologiyalarni boshqarish uchun zarur malaka shakllanmagan. Ayrim hollarda zamonaviy uskuna mavjud, lekin undan foydalanish eski ishlab chiqarish logikasi asosida davom etmoqda. Shu sababli texnologik modernizatsiya bilan iqtisodiy qaytim o‘rtasida tafovut paydo bo‘lmoqda. Mehnat unumdorligining statistik o‘sishi real texnologik chuqurlashuvni har doim ham anglatmayapti.

Energiya xarajatlari bilan bog‘liq bosim sanoatning ichki samaradorligini cheklayotgan eng og‘ir omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Metallurgiya va kimyo sanoatida energiya xarajatlari mahsulot tannarxining 25–30 foizigacha yetmoqda. Bu rivojlangan sanoat tizimlariga nisbatan deyarli ikki barobar yuqori ko‘rsatkich. Muammo energiya resurslari taqchilligida emas, ulardan foydalanish modeli eskirib qolganida namoyon bo‘lmoqda. Ayrim korxonalarda energiya oqimi ishlab chiqarish hajmi bilan sinxron boshqarilmaydi. Chiqindilarni qayta ishlash tizimlari sust rivojlangan. Energiya tejamkor texnologiyalar esa ko‘proq hisobotlarda mavjud, amaliy ishlab chiqarish jarayonida emas. Shu sababli energiya intensivligi ichki xarajatlarni oshiribgina qolmay, eksportdagi narx ustunligini ham qisqartirmoqda.

Innovatsion mahsulotlar ulushi ham sanoatning texnologik transformatsiyasi yetarli darajada chuqurlashmaganini ko‘rsatmoqda. Tekstil sanoatida innovatsion mahsulotlar ulushi 8–9 foizdan oshmayapti, mashinasozlikda esa 12–13 foiz atrofida qolmoqda. Germaniya yoki Janubiy Koreya bilan solishtirilganda tafovut juda katta. Lekin asosiy muammo innovatsiya haqida kam gapirilayotganida emas. Muammo innovatsiyaning ishlab chiqarish tizimiga iqtisodiy integratsiyasi sustligida. Ko‘plab korxonalarda innovatsiya texnologik yangilik sifatida joriy qilinadi, biroq u value-added zanjirini o‘zgartira olmaydi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kengayadi, lekin mahsulotning texnologik murakkabligi va eksportdagi ustunligi yetarli kuchaymaydi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Xulosa. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini talqin qilib, sohada strategik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholash, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish hamda tahlil qilishning ilmiy asoslangan bazasini takomillashtirish, resurslardan to‘liq foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi namoyon etildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил, 25 январь . “Халқ сўзи” газетаси. № 19.
2. Друкер П. 2004.Энциклопедия менеджмента / П. Друкер; Пер. в англ.; Под ред. Т. А. Гуреш. М. : Издательский дом «Вильямс».
3. Растворцева С.Н. 2014. Сущность эффективности развития региона // Общество: политика, экономика, право. № 1. С. 75-81 .
4. Porter M. E. 1985. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
5. Teece D. J. 2007. Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of (sustainable) enterprise performance. Strategic Management Journal, 28(13), 1319-1350.
6. Мотов М.А. 2019. Проблемы управления экономическим потенциалом предприятия в рыночных условиях. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов.
7. Ernazarov G‘.B. Sanoatda ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari // “Ekonomika” nauchno-analiticheskiy elektronnyy jurnal. Выпуск №2, iyul 2022 g.
8. Kalandarov S. Sanoatning rivojlanish modeli va innovasion mexanizmlari. – Т.: Iqtisodiyot va ta’lim, 2019. – 248 b.